

**2022-2026-yillarda Toshkent davlat yuridik universitetini strategik rivojlantirish dasturini amalga oshirish yuzasidan
“YO‘L XARITA”**

T/r	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Muddati	Mas’ul ijrochilar
I. Universitetning asosiy qadriyatlari				
1.	Akademik erkinlikni ta’minlash	1.Universitetda akademik erkinlikning asosiy g‘oyasi va maqsadi, amalda qo‘llash imkoniyatlari va tartibi bo‘yicha qoidalar ishlab chiqish; 2.Har bir professor-o‘qituvchi o‘zining tor mutaxassisligi bo‘yicha olib boradigan moduli yuzasidan o‘z o‘quv dasturi (sillabus)ni tayyorlash erkinligini ta’minlash; 3.Universitetda akademik erkinlik muhitini shakllantirish uchun professor-o‘qituvchilarning asosiy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan yuklamalar (topshiriqlar)ni o‘rganib chiqish, ularni tubdan qisqartirish va raqamlashtirish choralari ko‘rish.	2022-yil may 2023-yil sentabr 2022-yil avgust	I.Rustambekov D.Rajabov A.Hakimov D.Rajabov A.Hakimov D.Rajabov A.Hakimov A.Karimov
2.	Akademik halollikni himoya qilish	1. Xalqaro standartlar asosida universitetning akademik halollik talablari qayta ishlab chiqish va tasdiqlash, akademik halollik talablarini buzgan talabani talabalar safidan chiqarish, xodim va o‘qituvchilarga intizomiy jazo choralari qo‘llash asoslari va tartibini aniq belgilash; 2. Universitet talabalari va xodimlarida plagiat (ko‘chirmachilik)ga murosasiz munosabatda bo‘lish kayfiyatini shakllantirish hamda akademik halollikni keng targ‘ib qilish; 3. Plagiat holatlarini aniqlovchi dasturiy mahsulot (Turnitin)ni o‘zbek tilidagi matnlarni tekshirish sifatini oshirgan holda onlayn yuridik ta’lim nuqtai nazaridan takomillashtirish, shuningdek talabalar bilimini baholashda oraliq va yakuniy nazorat ishlarini plagiat holati bo‘yicha avtomatik tekshirib yuklash tartibini joriy qilish.	2022-yil iyun 2022-yil may muntazam 2023-yil oktabr	I.Rustambekov D.Rajabov O.Narziyev D.Rajabov Fakultet dekanlari Kafedra mudirlari A.Iminov A.Karimov S.Rajabboyev
3.	Universitet ta’limida teng sharoitlar, inklyuzivlik va xilma-xillikni ta’minlash	1. Universitet ta’limida teng sharoitlar, inklyuzivlik va xilma-xillikni ta’minlash, shu jumladan, nogironligi bo‘lgan, ko‘rish yoki eshitishda nuqsoni bor talabalarning ta’lim olishi uchun teng shart-sharoit yaratish,	2024-yil sentabr	A.Iminov I.Bozarov

		ularning universitet kampusidagi barcha binolarga kirib-chiqishi, bino qavatlariga chiqib-tushishi uchun qulay infratuzilma yaratish; 2. Ko‘rish yoki eshitishda nuqsoni bor talabalar uchun maxsus darslik, o‘quv qo‘llanma va boshqa o‘quv materiallarini tayyorlash, ulardan foydalana olish imkonini ta‘minlash; 3. Ko‘rish yoki eshitishda nuqsoni bor talabalarning maksimal darajada mustaqil, o‘zgalar yordamisiz ta‘limga oid ehtiyojlarini qondirishi uchun zarur bo‘lgan ta‘limga oid yordamchi texnologik vositalarni joriy qilish; 4. Nogironligi bo‘lgan, ko‘rish yoki eshitishda nuqsoni bor talabalarning mustaqil ta‘lim olishi uchun universitet Axborot resurs markazida maxsus jihozlangan xonalar tashkil qilish.	2023-yil avgust 2023-yil sentabr 2024-yil sentabr	A.Iminov D.Rajabov S.Latipov A.Iminov S.Latipov A.Iminov H.Pirmedova S.Latipov
4.	Universitet talabalari va xodimlarida ijtimoiy mas’uliyat hissini oshirish	1. Ijtimoiy loyihalarni “ijtimoiy faollik – universitet nufuzi – jamiyat foydasi” uch pog‘onali tashabbuskor tizim asosida yo‘lga qo‘yish; 2. Jamiyat uchun foydali ijtimoiy loyiha tashabbuskori bo‘lgan talaba va xodimlarni rag‘batlantirib borish mexanizmini yaratish; 3. Ijtimoiy yo‘naltirilgan Yuridik klinika (Probono) faoliyatini va Street law dasturini raqamlashtirish, natijadorligini oshirish hamda faol ishtirokchilarni rag‘batlantirib borish.	2022-yil oktabr 2022-yil noyabr 2022-yil noyabr	A.Hoshimxonov Sh.Po‘lotov A.Iminov S.Latipov A.Iminov O.Narziyev
5.	Universitet bitiruvchilari bilan faol hamkorlik o‘rnatish	1. Universitet bitiruvchilarining ma’lumotlar bazasini shakllantirish asosida bitiruvchilar bilan muntazam masofaviy muloqotni yo‘lga qo‘yish maqsadida www.alumni.tsul.uz platformasini yaratish; 2. Universitet bitiruvchilari assotsiatsiyasi (Alumni Association) hamda Maqsadli kapital fondini (Endowment Fund) faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish; 3. Yuridik ta‘limga investitsiya kiritish, talabalar uchun xususiy grantlar va bitiruvchilar stipendiyalarini tashkil qilish, talabalar amaliy stajirovkasi va kasbga yo‘naltirish jarayoniga universitet bitiruvchilarini faol jalb qilish; 4. Bitiruvchilar ishtirokida o‘quv, ilmiy-innovatsion va biznes loyihalarini muhokama qilish maqsadida bitiruvchilar klubi (Alumni Club) faoliyatini yo‘lga qo‘yish; 5. Universitetda bitiruvchilar uchrashuvini (Alumni reunion) har yil tashkil qilish.	2022-yil sentabr 2022-yil noyabr 2022-yil dekabr 2023-yil yanvar Har yili may oyida	I.Rustambekov A.Karimov S.Mamanazarov S.Mamanazarov Sh.Po‘lotov S.Mamanazarov Sh.Po‘lotov S.Mamanazarov

II. Universitet boshqaruv tizimini zamonaviy standartlar bo'yicha transformatsiya qilish				
6.	Akademik halollik bo'yicha universitetning yuqori boshqaruv organini tashkil etish	1. Universitet fakultetlari kengashlari va O'quv-uslubiy kengash negizida Akademik halollik kengashini tashkil qilish: Akademik halollik kengashi tarkibini universitetning 7 nafar tajribali professor-o'qituvchilari, shuningdek, qoida tariqasida 3 nafar chet eldagi vatandoshlar va 5 nafar faol talabalardan (har bir fakultetdan 1 nafardan talaba) shakllantirish; Akademik halollik kengashi raisini har o'quv yilining boshida mazkur kengashga a'zo universitet professor-o'qituvchilari orasidan yashirin ravishda saylash orqali aniqlash; Akademik halollik kengashi a'zolarini qo'shimcha moddiy rag'batlantirish tartibini belgilash.	2022-yil may	I.Rustambekov D.Rajabov A.Hakimov
		2. Akademik halollik kengashi nizomini ishlab chiqish va unda kengashning quyidagi muhim vazifalarini belgilash: universitetning akademik halollik siyosatini belgilash, akademik halollik talablarini aniqlash va bajarilishini monitoring qilib borish; universitet akademik halollik talablarini (akademik qasamyodni) buzgan xodim va talabaga intizomiy jazo chorasini qo'llash to'g'risida universitet rektoriga taklif kiritish; universitetning akademik erkinlik qoidalarini ishlab chiqish; o'quv adabiyotlari, shu jumladan, darslik, o'quv qo'llanma va o'quv-uslubiy qo'llanmalar sifatiga qo'yilgan talablarni ishlab chiqish, e'lon qilish va o'quv adabiyotlarini sifat talabalari bo'yicha qayta nashrga tavsiya qilish; o'quv adabiyotlarini universitet va respublika tanlovlariga tavsiya qilish; katta o'qituvchi lavozimiga talablarni ishlab chiqish va e'lon qilish; professor-o'qituvchilarni katta o'qituvchi, dotsent v.b. va professor v.b. lavozimlariga tavsiya etish; universitet professor-o'qituvchilarini universitet va respublika tanlovlariga, faxriy unvonlarga hamda davlat mukofotlariga tavsiya qilish; talabalarni universitet stipendiyasi va granti, adliya vaziri stipendiyasi, Prezident va nomli davlat stipendiyalariga tavsiya qilish;	2022-yil iyun	I.Rustambekov D.Rajabov A.Hakimov

[illegible]

		yuzasidan tavsiyalar berish; yuridik sohada ilmiy-tadqiqot ishlari, shu jumladan dissertatsiya, monografiya va ilmiy maqolalar sifatiga qo'yilgan talablarni ishlab chiqish va e'lon qilish; eng yaxshi dissertatsiya tanlovlarini o'tkazish; monografiya, ilmiy maqolalar va innovatsion loyihalarni universitet va respublika tanlovlariga tavsiya qilish; professor-o'qituvchilarni ilmiy unvonlarga tavsiya etish; magistrlik dissertatsiyasi va ilmiy-tadqiqot mavzularini ekspertizadan o'tkazish; yuridik fanlar bo'yicha ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash va ular qoshidagi ilmiy seminarlar tarkibini shakllantirish, kengash faoliyatini monitoring qilib borish va samaradorligini oshirish yuzasidan takliflar kiritish; ilmiy maktab va ilmiy to'garaklar faoliyatiga baho berish, reytingini e'lon qilish va rag'batlantirish bo'yicha universitet rahbariyatiga takliflar kiritish; fundamental, amaliy va innovatsion loyihalarni ilmiy ekspertizadan o'tkazib, tanlovga tavsiya qilish; ilmiy-tadqiqot faoliyati samaradorligini monitoring qilib borish, ajratilgan mablag'lardan samarali foydalanishni ta'minlash va halol tadqiqot olib borishni rag'batlantirishga oid takliflar kiritish; universitetning ilm-fan va innovatsiyalarga oid siyosati bo'yicha taklif va tavsiyalar berish, boshqa muhim vazifalarini belgilash.		
8.	Akademik faoliyatni boshqarish va o'quv jarayonini muvofiqlashtirishning zamonaviy menejment tizimiga o'tish	1. Xalqaro standartlarga javob beradigan Akademik faoliyat va registrator boshqarmasi (Registrar office) faoliyatini bosqichma-bosqich yo'lga qo'yish: Talabalarga xizmat ko'rsatish markazi tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar ko'lami va sifatini oshirib borish, faoliyatini raqamlashtirish va mobil ilovasini yaratish, bunda talabalar tashabbusini keng ta'minlash va rag'batlantirish; Karyera markazini tashkil qilish orqali talabalar amaliy stajirovkasi va ish bilan bandligini ta'minlash; o'qishga qabul qilish, o'qishni ko'chirish, qayta tiklash, talabalarga akademik ta'til berish bilan shug'ullanuvchi Qabul jarayoni va talabalar	2026-yil iyun 2022-yil avgust 2022-yil mart 2022-yil may	I.Rustambekov S.Mamanazarov A.Karimov S.Mamanazarov I.Rustambekov S.Mamanazarov D.Umarov A.Babadjanov

		registratsiyasi bo'limini tashkil qilish; Shartnomaviy ta'lim xizmatlari bo'limi ma'lumotlarini Talabalarga xizmat ko'rsatish markazi faoliyati bilan integratsiya qilish; Akademik faoliyat va registrator boshqarmasini (O'quv jarayonini muvofiqlashtirish bo'limi, Masofaviy ta'lim bo'limi, Elektron universitet markazi, Talabalarga xizmat ko'rsatish markazi, Qabul bo'limi, Shartnomaviy ta'lim xizmatlari bo'limi, Karyera markazini birlashtirgan holda) "yagona darcha" tamoyili asosida tashkil qilish. 2. Universitet boshqaruvini ISO 21001:2018 (Management systems for educational organizations) ta'lim tashkilotlarining boshqaruv tizimi xalqaro standarti bo'yicha sertifikatlash yuzasidan takliflar kiritish.	2022-yil may 2025-yil avgust 2023-yil noyabr	A.Xundibayev S.Mamanazarov I.Rustambekov A.Karimov S.Mamanazarov I.Rustambekov D.Umarov B.Musayev
9.	Universitet boshqaruv organlari va kengashlar vakolatlari, ularning o'zaro nisbatini aniqlash	1. Universitet Kengashi va rektori vakolatlari, ularning o'zaro nisbatini aniqlash, Universitet ustaviga o'zgartirishlar kiritish; 2. Universitet Kengashiga kiritilayotgan xo'jalik-moliyaviy masalalar va qaror loyihalarini huquqiy ekspertizadan o'tkazish mexanizmini joriy etish; 3. Fakultet dekanatlari va talabalarga xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarkibiy bo'linmalar funksional vazifalari chegarasi va o'zaro nisbatini aniqlash, tegishli mansab yo'riqnomalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish.	2022-yil may 2022-yil mart 2022-yil iyun	E.Xosilov B.Normatov A.Iminov E.Xosilov S.Mamanazarov Fakultet dekanlari Sh.Hamroqulov
10.	Universitet boshqaruvi va ish yuritish tizimini to'liq raqamlashtirish	1. Kafedralar va tarkibiy bo'linmalar tomonidan o'quv, ilmiy va boshqa jarayonlar bilan bog'liq hujjatlarni elektron imzo bilan tasdiqlash orqali hujjatlar almashinuvini (korporativ pochta) ta'minlovchi universitet ichki tarmog'i (intranet)ni yaratish; 2. "Elektron universitet" loyihasini amalga oshirish: o'quv jarayonini raqamlashtirish, shu jumladan ta'lim dasturi katalogi, talabalar kredit olish trayektoriyasi, dars va imtihon jadvalini shakllantirish, talabalar bilimini baholash, talabalar reytingini shakllantirish, talabalar davomatini to'liq raqamlashtirish; ma'lumotlarga asoslangan talabalarining o'zlashtirishi va davomati tahlili (Data-driven student analysis) onlayn mexanizmini yaratish; talabalarga oid bo'lgan hujjatlar, ruxsatnoma, guvohnomalarni integratsiya qilgan holda talabalarining shaxsiga oid ma'lumotlari jamlangan chipli yagona plastik yoki virtual karta TSUL CARD (ID karta) joriy etish;	2022-yil iyun 2022-yil sentabr 2022-yil dekabr 2022-yil avgust	I.Rustambekov N.Salayev A.Iminov A.Karimov I.Rustambekov D.Rajabov A.Karimov A.Karimov S.Rajabboyev S.Mamanazarov A.Karimov

		marketing.tsul.uz platformasida ma'lumotlar arxivini yaratish, to'lov-kontrakt shartnomalar va to'lovlar bo'yicha ma'lumotlarni elektronlashtirish.	2022-yil avgust	A.Xundibayev A.Karimov
11.	Kafedralar bilan tarkibiy bo'linmalarining o'zaro hamkorligini soddalashtirish va raqamlashtirish	1. Universitet tarkibiy bo'linmalari tomonidan kafedralarga beriladigan topshiriq (hisobot, jadval)larni inventarizatsiya qilish; 2. Kafedralar tomonidan to'ldiriladigan hisobot va jadvallarning yagona ma'lumotlar bazasini yaratish, raqamlashtirish va avtomatlashtirish; 3. Kafedralar tomonidan yangilab boriladigan ma'lumotlar bazasidan foydalangan holda tarkibiy bo'linmalar tomonidan hisobot va jadvallarni mustaqil to'ldirish (topshiriqni mustaqil ijro etish) amaliyotini yo'lga qo'yish.	2022-yil mart 2022-yil aprel 2022-yil may	I.Rustambekov D.Mahkamov D.Mahkamov A.Karimov D.Mahkamov A.Karimov
12.	Universitet HR tizimini takomillashtirish	1. Universitetga ishga qabul qilishda kadrlarni izlab topish (headhunting), ularning zahirasini shakllantirish hamda amalda ishlab turgan pedagog kadrlar faoliyatini o'rgangan holda ularga baho berish, mavjud kamchiliklar yuzasidan tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha mexanizm yaratish; 2. O'quv-ilmiy jarayonlarga jalb etiladigan xorijiy yuqori malakali mutaxassislar mehnatiga haq to'lash tartibini soddalashtirish; 3. Toshkent davlat yuridik universiteti rahbar va xodimlari hamda professor-o'qituvchilari faoliyati samaradorligini mezonlar bo'yicha baholashning (KPI) avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish; 4. Professor-o'qituvchilarni yil yakuni bo'yicha rag'batlantirish tizimini yanada takomillashtirish.	2022-yil may 2022-yil iyun 2022-yil avgust 2022-yil noyabr	I.Rustambekov Sh.Hamroqulov A.Iminov E.Abdullayev D.Maxkamov Sh.Hamroqulov A.Hoshimxonov A.Iminov
III. Yuridik ta'lim sifatini oshirish va amaliyligini ta'minlash				
13.	Kadr buyurtmachilari bilan ishlash jarayonining integratsiyalashgan tizimini (elektron platforma) yaratish	1. Yuridik kadr buyurtmachilari – ish beruvchilar bazasini shakllantirish va yangilab borish; 2. Kadr buyurtmachilarining talab va ehtiyojlari asosida malaka talablarini ishlab chiqish va o'quv rejalarini yangilab borish; 3. Ish beruvchilarning yuridik kadrlarni tayyorlashga buyurtmalari (bo'sh ish o'rinlari, ularga tanlov talablari, saralab olish tartibi) haqida ma'lumotlarni joylashtirish va yangilab borish; 4. Talabalarining (CV) rezyumelari va universitet tomonidan berilgan tavsiyanomalarini joylashtirib borish;	2022-yil iyun 2022-yil avgust 2022-yil may 2022-yil iyun	I.Rustambekov S.Mamanazarov I.Rustambekov D.Rajabov S.Mamanazarov A.Karimov S.Mamanazarov Fakultet dekanlari

		5. Universitet talabalarining amaliyot va stajirovka o'tashini integratsiya qilish, talabalarga amaliy mentorlarni biriktirish amaliyotini joriy qilish;	2022-yil sentabr	S.Mamanazarov A.Karimov
		6. Talabalarni o'qish davrida ish bilan ta'minlash mexanizmini yaratish;	2022-yil may	S.Mamanazarov
		7. Bitiruvchi talabalarining 4 yillik reyting natijalarini e'lon qilish orqali kadrlar buyurtmachilari uchun shaffof tanlov jarayonini ta'minlash;	2022-yil may	D.Rajabov
		8. Yakuniy davlat attestatsiyasida yuridik kadrlar buyurtmachilari ishtirokini ta'minlash hamda shu orqali kadrlarni tanlab olish amaliyotini yo'lga qo'yish;	2022-yil may-iyun	S.Mamanazarov D.Rajabov
		9. Yuridik kadr buyurtmachilari bilan har yili "Job Fair" mehnat yarmarkalarini o'tkazishga oid tashkiliy jarayonlarni hal qilish;	Har yil may va dekabr	S.Mamanazarov Fakultet dekanlari
		10. Universitet bitiruvchi talabalarining ishga joylashishi va kasbiy o'sishini monitoring qilib borish.	Muntazam	S.Mamanazarov
14.	Yuridik ta'lim amaliyligini ta'minlashning samarali mexanizmlarini yaratish, yuridik ta'lim klasterini joriy etish	1. Universitet ta'limini yuridik amaliyot markaziga aylantirish, universitet kampusida sayyor sud majlisi xonalari, tergov va kriminalistika laboratoriyalari, yuridik xizmat, mediatsiya, hakamlik sudlari va xalqaro arbitraj markazlari, yuridik biznes akselleratorlarini tashkil etgan holda amaliyotga yo'naltirilgan mashg'ulotlarni olib borish;	2025-yil sentabr	I.Rustambekov A.Iminov I.Bozarov Fakultet dekanlari
		2. Sud, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va yuridik kadrlarning asosiy buyurtmachilari hisoblangan tashkilotlarda amaliy mutaxassislik kafedralarini tashkil etish, kafedralarda amaliyotchi mutaxassislar bilan hamkorlikda o'quv jarayonini (binar mahorat darslari, real kazuslarni tushuntirish va h.k.) tashkil etish hamda qo'shma ilmiy-amaliy tadqiqot loyihalarini (sharhlar, grant loyihalar, case-book tayyorlash va h.k.) yo'lga qo'yish;	2023-yil oktabr	I.Rustambekov N.Salayev Fakultet dekanlari Kafedra mudirlari
		3. Dars mashg'ulotlarini amaliyot joyida, bevosita davlat organlari va tashkilotlarning o'zida ularning ish faoliyatini tushuntirish orqali real kuzatuv mashg'ulotlari ko'rinishida tashkil etish;	2022-yil sentabr	Fakultet dekanlari Kafedra mudirlari
		4. Yuqoridagilar asosida yuridik ta'lim klasterini joriy etish yuzasidan TDYU Kuzatuv kengashiga O'zaro hamkorlik to'g'risidagi kelishuv (memorandum) loyihasini tasdiqlash uchun kiritish.	2022-yil iyun	I.Rustambekov D.Umarov S.Mamanazarov

15.	Yangi, kelajakka yo'naltirilgan yuridik va noyuridik ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari, shuningdek yangi fakultetlar joriy etish	Yuridik kadr buyurtmachilari ehtiyojlaridan kelib chiqib bakalavriat yangi ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari hamda yangi fakultetlar ochish bo'yicha takliflar tayyorlash;	2022-yil may-iyun	I.Rustambekov D.Umarov D.Rajabov
		gumanitar yo'nalishlar fakultetini ochish va uning tarkibida biznes menejment, xalqaro munosabatlar, siyosatshunoslik, siyosiy iqtisod ta'lim yo'nalishlarini tashkil etish;	2022-yil may	D.Rajabov G.Nosirxodjayeva
		sotsiologiya va huquq, iqtisodiyot va huquq, jurnalistika va huquq kabi sohalararo ta'lim mutaxassisliklarini ochish hamda qo'sh malaka (dual degree) berish tizimini joriy qilish.	2022-yil iyun	D.Rajabov A.Hakimov
16.	Yevropa kredit tizimi ECTS (European Credit Transfer and Accumilation System)ni to'liq joriy etish	1. Mehnat bozori talablari va xorijiy tajribalar (xalqaro reytinglarda TOP-100 talikda bo'lgan universitet tajribalari) asosida, talabalarning qiziqishini inobatga olgan holda o'quv reja va dasturlarni yangilab borish, ularning o'zgaruvchan va moslashuvchanligini ta'minlash;	2022-yil iyun	I.Rustambekov D.Rajabov Fakultet dekanlari Kafedra mudirlari
		2. Har bir talabaga tanlov fanlarni tanlash va shaxsiy ta'lim trayektoriyasini mustaqil shakllantirishning real imkoniyatlarini yaratib berish;	2022-yil avgust	D.Rajabov A.Karimov
		3. Universitetdagi o'quv jarayonini takomillashtirib borish, "soft skills" shakllantirishga qaratilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar haqida qo'llanma hamda yo'riqnomalarni tayyorlash;	2022-yil may-iyun	B.Musayev D.Rajabov Kafedra mudirlari
		4. Universitetga yangi qabul qilingan professor-o'qituvchilarga universitetda joriy qilingan kredit-modul tizimining ishlash mexanizmini hamda pedagogik texnologiyalarni qo'llashni o'rganishga qaratilgan o'quv kursi joriy qilish.	2022-yil iyun	A.Yakubov B.Musayev Kafedra mudirlari
17.	Zamonaviy, sodda tilda yozilgan, jozibador o'quv adabiyotlarni yaratish	1. Yuridik adabiyotlarni yuqori sifatda tayyorlash, moliyalashtirish va nashr ettirish tartibini soddalashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;	2022-yil may	I.Rustambekov Q.Mehmonov
		2. Chel eldagi vatandosh, xorijiy olimlar va mutaxassislar bilan hammualliflikda huquq tamoyillarini amalda ishlashini sodda tushuntirib beruvchi darsliklarni yaratish;	2023-yil sentabr	I.Rustambekov E.Abdullayev Kafedra mudirlari
		3. Zamonaviy multimediali smart-book (QR-kodlar, real hayotdan olingan rasmlar va belgilar, videorolik va testlarga havolalar) turkumini shakllantirish va onlayn platformaga joylashtirish;	2024-yil avgust	A.Karimov Kafedra mudirlari
		4. TDYU daromadlar va xarajatlar smetasida darsliklar, o'quv qo'llanmalar, ilmiy va uslubiy adabiyotlar tayyorlash, tarjima qilish va nashr etish, shuningdek, mualliflar mehnatini rag'batlantirishga mablag'lar ajratish.	Belgilangan muddatda	I.Rustambekov A.Iminov

18.	Yuridik ta'limga xos zamonaviy pedagogik texnologiyalar va o'qitishning ilg'or yondashuvlarini joriy etish	1. Tenure system – muhim yuridik bilimlarni egallash va ulardan amalda foydalana olish tizimi, jumladan, kompetentlik yondashuvi asosida o'qitishni yo'lga qo'yish;	2023-yil sentabr	I.Rustambekov B.Musayev
		2. Mashg'ulotlarni "Just-in-Time teaching" yondashuvi asosida talabalarning oldindan tayyorgarlik ko'rib kelgan holda, "Concept mapping methodology" uslubi asosida muhim huquqiy tushunchalarni amaliyotda qo'llash xaritasi bo'yicha olib borish;	2023-yil sentabr	Fakultet dekanlari Kafedra mudirlari
		3. Yuridik ta'limni amalga oshirishda qonun hujjatlari zahirida yotgan huquq tamoyillarini real keyslar asosida oson tushunishga ustuvorlik berish;	2023-yil sentabr	Fakultet dekanlari Kafedra mudirlari
		4. Yuqoridagi metodlarni amalda qo'llash yuzasidan professor-o'qituvchilar uchun mo'ljallangan uslubiy qo'llanmalarni o'zbek va rus tillarida tayyorlash hamda professor-o'qituvchilarga tarqatish;	2022-yil dekabr	D.Rajabov B.Musayev
		5. Universitetga yangi qabul qilingan professor-o'qituvchilarga yuqoridagi metodlar bilan ishlash bo'yicha treninglarni tashkil qilib borish mexanizmini yaratish.	2023-yil yanvar	A.Yakubov B.Musayev
19.	Professor-o'qituvchilarning kasbiy malakasi va faolligini oshirishda uzluksizlik va zamonaviylikni ta'minlash	1. Yangi ishga qabul qilingan o'qituvchilarni uch oy muddatga malakali va tajribali professor-o'qituvchi (mentor)larga biriktirish amaliyotini yo'lga qo'yish;	2022-yil avgust	I.Rustambekov Fakultet dekanlari
		2. Xorijiy professor va vatandoshlarni kafedralarga doimiy asosda, shu jumladan, akademik maslahatchi (Academic Advisor) sifatida to'liq shtatga jalb qilish, ularga haq to'lashning alohida tartibini belgilash;	2023-yil avgust	D.Umarov A.Iminov E.Abdullayev
		3. Tajribali professorlarga o'qituvchi-yordamchisi (Teaching Assistant) va ilmiy-yordamchi (Research Assistant)larni biriktirish institutini joriy qilish bo'yicha takliflar kiritish;	2022-yil avgust	I.Rustambekov Fakultet dekanlari
		4. Professor-o'qituvchilarning mutaxassisligi bo'yicha sud, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa tashkilotlarni amaliy stajirovkaga yuborishni tizimli yo'lga qo'yish;	2022-yil avgust	Sh.Hamroqulov Fakultet dekanlari
		5. Universitet reytingida eng yuqori o'ntalik o'rinni egallagan o'qituvchilarni rag'batlantirish maqsadida xorijiy universitet va ilmiy-tadqiqot muassasalariga ijodiy ta'tilga yuborish amaliyotini joriy qilish.	Har yil iyun-avgust	D.Umarov E.Abdullayev B.Musayev
20.	Yuridik ta'limda raqobat muhitini shakllantirish va talabalar bilimni rag'batlantirish	1. Universitet reytingida eng yuqori 5 talik o'rinni egallagan talabalarni rag'batlantirish sifatida (egallagan o'ringa mutanosib ravishda) universitet tomonidan kontrakt qiymatining muayyan qismini to'lab berish amaliyotini joriy qilish;	2022-yil avgust	I.Rustambekov A.Iminov

		2. Talabalar bilimini rag'batlantirish maqsadida xususiy grantlar, universitet bitiruvchilari va kadr buyurtmachilarining stipendiyalarini tashkil etish bo'yicha choralar ko'rish; 3. Universitetda ta'lim olish davrida o'zlashtirish ko'rsatkichi 90 foiz va undan yuqori bo'lgan bitiruvchi talabalarni rektor tavsiyanomasi asosida ishga yo'naltirish tizimini joriy qilish bo'yicha kadrlar buyurtmachilari bilan qo'shma qaror qabul qilish.	2023-yil oktabr 2022-yil dekabr	I.Rustambekov Fakultet dekanlari I.Rustambekov D.Umarov D.Rajabov S.Mamanazarov
21.	Bitiruv malakaviy ishlarni loyihaviy yondashuv (Legal Project Management) asosida tayyorlashni yo'lga qo'yish	1. Bitiruv malakaviy ishlarni hududiy va tarmoq muammolarining huquqiy jihatlarini amaliy o'rganish, tadqiq qilish va asoslangan yechimini topishga yo'naltirilgan loyiha shaklida amalga oshirish (Domestic Fieldwork); 2. Bitiruv malakaviy ishlarni jamoaviy loyiha (Team Project) shaklida tayyorlashni bosqichma-bosqich yo'lga qo'yish.	2023-yil sentabr 2024-yil sentabr	I.Rustambekov D.Rajabov Kafedra mudirlari I.Rustambekov D.Rajabov
22.	Klinik ta'limni rivojlantirish	1. Yuridik klinikaning veb saytini interfaol ko'rinishda shakllantirish; 2. Yuridik klinikada fuqarolarni qabul qilish va murojaatlar bilan ishlash jarayoni to'liq tushuntirib beruvchi video-rolik (video dars) tayyorlash; 3. Yoshlar va aholining huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan onlayn huquqiy marafon tashkil etish; 4. Hududlardagi huquqshunoslik fakultetlarida Yuridik klinika tashkil etish va uning xodimlari uchun dastlabki treninglar o'tib berish; 5. Yuridik klinikaning "Yozgi maktabi"ni o'tkazish.	2022-yil dekabr 2022-yil oktabr 2022-yil noyabr 2023-yil sentabr 2023-yil iyul	O.Narziyev A.Karimov O.Narziyev J.Xaydarov O.Narziyev Kafedra mudirlari D.Umarov O.Narziyev E.Abdullayev O.Narziyev
23.	Uzluksiz professional ta'lim tizimini takomillashtirish va TDYU bilan uzviy aloqasini ta'minlash	1. TDYUda joriy etilgan ta'lim tizimiga monand tarzda Akademik litsey va yuridik texnikumlarning o'quv jarayonini takomillashtirish hamda huquqiy fanlar samaradorligini oshirish; 2. Akademik litsey va yuridik texnikumlar tomonidan tashkil etiladigan masofaviy (onlayn) darslarga soatbay asosida mutaxassislarni jalb qilish tartibini soddalashtirish bo'yicha takliflar kiritish; 3. Akademik litsey va yuridik texnikumlarni salohiyatli kadrlar tarkibi bilan ta'minlash, huquqshunoslik fani o'qituvchilarining kasbiy malakasini oshirishni tizimini qayta ko'rib chiqish; 4. Yuridik texnikumlarda o'quv adabiyotlari bilan ta'minlanganlik holatini inventarizatsiya qilish va mavjud bo'lmagan darsliklarni TDYU professor-o'qituvchilari bilan birgalikda tayyorlashni tashkil etish.	2023-yil sentabr 2022-yil iyun 2022-yil dekabr 2022-yil dekabr	D.Umarov I.Rustambekov O.Saidumarov D.Umarov I.Rustambekov D.Alimov D.Umarov A.Yakubov O.Saidumarov D.Umarov D.Alimov

IV. Ilm-fanni sifat jihatidan isloh qilish, amaliy natijadorligi va tijoratlashuvini oshirish				
24.	Doktorant va mustaqil izlanuvchilik faoliyatiga zamonaviy yondashuvlarni shakllantirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga kirish va yo‘naltirish tizimini shakllantirish	1. Bakalavriat va magistratura talabalari (doktorantlar) uchun o‘zbek, rus va ingliz tillarida “<i>Academic writing I</i>” (majburiy), “<i>Academic writing II</i>” va “<i>Academic writing III</i>” (tanlov) modullarini joriy etish; 2. Professor-o‘qituvchilar, ilmiy rahbarlar uchun ixtiyoriy “<i>Academic writing</i>” trening kurslarini tashkil etish; 3. Ilmiy-tadqiqot ishlarini yozish, rasmiylashtirish va loyihalashtirishga qaratilgan “<i>Academic writing</i>” moduli bo‘yicha doimiy asosda ishlovchi xorijiy professorlarni jalb etish; 4. Doktorantlar uchun maxsus ilmiy-tadqiqot faoliyatiga kirish kursini tashkil etish.	2022-yil sentabr 2023-yil yanvar 2022-yil oktabr 2022-yil oktabr	I.Rustambekov D.Rajabov A.Yakubov O.Toshmatov I.Ergashev D.Umarov E.Abdullayev A.Yakubov I.Ergashev
25.	Huquqshunoslik sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlarining huquqiy asoslarini xalqaro standartlarga mos ravishda takomillashtirish	1.Xalqaro standartlar asosida ilmiy-tadqiqot ishlarini yozish, rasmiylashtirish va loyihalashtirish uslublarini nazarda tutuvchi TDYUda akademik yozuv uslublarini qo‘llash qoidalarini (<i>TSUL Manual of Writing Style</i>) ishlab chiqish va jurnal talablarini unga moslashtirish; 2.Tahririy-nashriyot bo‘limi faoliyatini zamonaviy tendesiyalar va mashhur universitetlar nashriyotlari (Cambridge University Press (CUP), University of Chicago Press) standartlariga yaqinlashtirish va ular bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish.	2023-yil sentabr 2025-yil dekabr	N.Salayev I.Ergashev O.Choriyev N.Salayev I.Ergashev E.Abdullayev O.Choriyev
26.	Ilmiy-tadqiqot faoliyatini raqamli texnologiyalar vositasida soddalashtirish va samaradorligini ta‘minlash	1. <i>E-Researcher</i> tadqiqotchilarning elektron portfoliosini shakllantirgan holda universitet va tadqiqotchilar o‘rtasidagi barcha hujjatlar aylanmasini elektron axborot tizimini yaratish, mazkur tizim orqali izlanuvchilar faoliyati samaradorligini onlayn shaklda uzluksiz monitoring qilib borish; 2. Yuridik fanlar bo‘yicha ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash va ular qoshidagi ilmiy seminarlar tarkibini shakllantirish bo‘yicha shaffof tartibni belgilash, kengash tarkibiga chet eldagi vatandoshlar va xorijiy professorlarni kiritish, yashirin taqriz va ovoz berish mexanizmlarini yaratish, kengash a‘zolari faol ishtirokini rag‘batlantirish va monitoring qilib borish yuzasidan takliflar kiritish; 3. Ilmiy tadqiqot ishini osonlashtirishga xizmat qiluvchi (<i>Juris-M, Atlas.ti</i> kabi) IT dasturlarining o‘zbek tilidagi matnlar bilan ishlovchi versiyasini yaratish bo‘yicha takliflar kiritish.	2023-yil sentabr 2022-yil noyabr 2024-yil dekabr	N.Salayev I.Ergashev A.Karimov I.Ergashev D.Xabibullaev B.Musayev S.Latipov A.Karimov

27.	Ilmiy maktablar faoliyati natijadorligini oshirish	1. Ilmiy maktablarni huquq sohalari boʻyicha qayta tashkil etish; 2. Ilmiy maktablarda jamiyatdagi eng dolzarb muammolar boʻyicha soʻngi yuridik adabiyotlar va ilmiy ishlarni talaba va tadqiqotchilar ishtirokida muntazam ravishda muhokama qilib borish (<i>Study Group</i>) hamda muhokamalar natijalarini (<i>Book review, Article review</i> koʻrinishida) universitet veb-saytida va jurnallarida eʼlon qilib borish amaliyotini yoʻlga qoʻyish; 3. <i>Study Group</i> ilmiy muhokamalari natijasida ilmiy maktablar tomonidan bitiruv malakaviy ishlar, magistrlik dissertatsiyalari va ilmiy-tadqiqotlar uchun mavzular bazasini shakllantirish va eʼlon qilib borish; 4. Universitetdagi milliy huquq ilmiy maktablarining reytingi mezonlarini ishlab chiqish va eʼlon qilib borish tizimini yaratish.	2022-yil sentabr 2022-yil dekabr 2022-yil noyabr 2023-yil yanvar	N.Salayev I.Ergashev I.Ergashev Kafedra mudirlari O.Choriyev J.Haydarov I.Ergashev Kafedra mudirlari A.Babadjanov N.Salayev I.Ergashev
28.	Ilmiy-tadqiqot ishlari boʻyicha maʼlumotlar bazasi (Big Data) yaratish va tijoratlashtirish	1. Universitet (mavjud) ilmiy fondini Ilmiy-texnik maʼlumotlar bazasi (Big Data)ga aylantirish orqali (WestLaw, HeinOnlayn, LexisNexis kabi platformalarga prototip sifatida) <i>UzLaw</i> Huquqiy tadqiqotlar milliy bazasini yaratish; 2. Universitet Ilmiy-texnik maʼlumotlar bazasi (Big Data)ni tijoratlashtirishni yoʻlga qoʻyish; 3. <i>UzLaw</i> Huquqiy tadqiqotlar milliy bazasi tizimida ilmiy-tadqiqot natijalarini ommalashtirish va tegishli huquqni qoʻllovchi hamda qonunchilik tashabbuskorlari eʼtiboriga yetkazilishini taʼminlovchi platforma yaratish; 4. <i>UzLaw</i> Huquqiy tadqiqotlar milliy bazasi tizimida huquqshunoslik sohasida olimlarning ilmiy-pedagogik faoliyati haqida jamoatchilikni xabardor qilib borish hamda ilmiy hamjamiyat vakillari oʻrtasida onlayn munozara maydonchalarini tashkil qilishga moʻljallangan platforma yaratish; 5. <i>UzLaw</i> Huquqiy tadqiqotlar milliy bazasining mobil ilovasini yaratib, “Google Play” va “App Store” onlayn platformalariga joylashtirish.	2024-yil dekabr 2022-yil sentabr 2022-yil noyabr 2023-yil yanvar 2023-yil mart	N.Salayev S.Latipov A.Karimov A.Karimov I.Ergashev S.Latipov A.Karimov S.Latipov I.Ergashev A.Karimov Kafedra mudirlari S.Latipov A.Karimov
V. Universitet etikasini shakllantirish, yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish va maʼnaviy-maʼrifiy ishlarni tizimli tashkil etish				
29.	Toshkent davlat yuridik universiteti xodim va talabalarida universitet etikasini	1. Xodim va talabalarda universitet etikasi konsepsiyani ishlab chiqish va barcha xodim hamda talabalarga yetkazish;	2022-yil sentabr	A.Hoshimxonov Sh.Poʻlotov

	shakllantirish	2. Universitet etikasini shakllantirish, universitet xodimi yoki talabasi bo'lishning yuksak sharafliligini, uning nufuzini oshirish barchaning burchi ekanligi yuzasidan xodim va talabalar o'rtasida turli uchrashuvlar, tushuntirish ishlari, tanlovlar va loyihalar o'tkazib borish; 3. Universitet etikasini shakllantirish tizimida o'zini-o'zi boshqarish mexanizmini joriy etish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil qilishda Talabalar kengashi (Students Unions) faolligi va tashabbuskorligini keng ta'minlash.	O'quv yili davomida 2022-yil may	Sh.Po'lotov Fakultet dekanlari Sh.Po'lotov Talabalar kengashi
30.	Universitet brendini ommalashtirish	1. Universitet faoliyati to'g'risida fuqarolar xabardorligini oshirish, universitet yutuqlarini veb-sayt va ijtimoiy tarmoqlarda joylashtirib yangilab borish; 2. Universitetning rasmiy belgisi va "Toshkent davlat yuridik universiteti" so'zlari hamda TSUL logotipi tushirilgan mahsulotlarni tayyorlash; 3. Mahsulotlarning ko'rinishini talabalar fikri bilan yanada boyitish; 4. Mahsulotlarni chop ettirish va talabalar orasida keng targ'ib qilish; 5. Universitet brendiga aylantirilgan mahsulotlar do'konini tashkil etish; 6. Faol talabalarga universitet brendiga aylangan mahsulotlarni rag'bat sifatida taqdim etib borish hamda universitet brendini keng targ'ib qilish borasidagi ishlarni tizimli ravishda olib borish.	2022-yil may 2022-yil sentabr 2022-yil noyabr 2023-yil mart 2022-yil sentabr Doimiy	A.Hoshimxonov J.Haydarov A.Iminov J.Haydarov S.Latipov Sh.Po'lotov S.Latipov A.Iminov I.Bozorov Sh.Po'lotov S.Latipov
31.	Internet tarmoqlaridagi axborot bilan ishlash va ijtimoiy tarmoqlar madaniyatini shakllantirish	1. Axborot xavfsizligi, shaxsga doir ma'lumotlarni himoyalash, axborotlarni tahlil qilish, <i>fakt-checking</i> yuzasidan qisqa fakultativ o'quv kursini tashkil qilish va o'quv kursining videotasvirini ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish; 2. Talabalar orasida internetdan maqsadli foydalanish va ijtimoiy tarmoqlar madaniyatini zamonaviy usullar yordamida keng targ'ib qilish.	2022-yil oktabr 2022-yil dekabr	A.Hoshimxonov J.Haydarov A.Hoshimxonov Sh.Po'lotov
32.	Huquqshunoslik yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida turli tanlovlar fan olimpiadalari va loyihalarni muntazam o'tkazib borish.	1. Tegishli vazirlik va idoralarning qo'shma qarorlarini imzolash hamda tanlovlarning tartiblarini belgilash; 2. Tanlovlarning nizomlarini talabalar o'rtasida e'lon berish va ishtirokchi talabalarni tizimli tayyorlab borish; 3. Tanlovlarning oliy ta'lim muassasalari bosqichini yuqori saviyada hamda adolatli o'tkazish; 4. Tanlovlarning respublika bosqichini yuqori saviyada tashkil etish hamda g'oliblarini munosib rag'batlantirish.	2022-yil sentabr 2022-yil noyabr 2022-yil dekabr 2022-yil dekabr	I.Rustambekov A.Hoshimxonov D.Rajabov Sh.Po'lotov Fakultet dekanlari Kafedra mudirlari

33.	Yuridik etika, huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan aniq va manzilli tadbirlarga ustuvorlik berish	1. Yuristning kasb etikasi bo'yicha seminar-treninglar tashkil etish; 2. Huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan kundalik hayotdagi muhim masalalar yuzasidan podcast, onlayn ovozli chatlarni muntazam tayyorlash va tarqatish; 3. "Huquqiy shahar" mobil ilovasini takomillashtirish va kontentlar bilan boyitib borish; 4. Huquqiy targ'ibot ishlarini xizmat ko'rsatish shartnomasi asosida tashkil etish bo'yicha taklif kiritish.	2022-yil oktabr muntazam 2022-yil dekabr 2022-yil dekabr	A.Hoshimxonov Sh.Po'lotov J.Haydarov S.Latipov Kafedra mudirlari S.Latipov
34.	Universitetda har o'quv yili uchun turli yo'nalishdagi "Yillik intellektual o'yinlar" loyihalarini yo'lga qo'yish va samarali tashkil etish	1. Intellektual o'yinlar nizomlarini ishlab chiqish va tasdiqlatish; 2. Intellektual o'yinlar shartlari va talablarini har o'quv yili boshida talabalar e'tiboriga yetkazish; 3. Belgilangan muddatlarda intellektual o'yinlarni o'tkazib borish va g'oliblarni munosib rag'batlantirish.	2022-yil sentabr-oktabr 2022-yil dekabr	A.Hoshimxonov Sh.Po'lotov Fakultet dekanlari Kafedra mudirlari
VI. Xalqaro hamkorlik, qo'shma ta'lim va tadqiqot dasturlarini yangi bosqichga ko'tarish				
35.	Yetuk xorijiy universitetlar va ilmiy markazlar bilan o'zaro manfaatli va natijador hamkorlikning ustuvor yo'nalishlarini belgilash	1. Xalqaro dasturlarda ishtirok etish bo'yicha universitetning ustuvor yo'nalishlarni belgilash; 2. Mintaqaviy dasturlar (Erasmus+, Tempus), shuningdek alohida xalqaro hamkorlik tashkilotlari (KOICA, JICA, DAAD, GIZ) bilan hamkorlikni yangi bosqichga ko'tarish; 3. Xalqaro hamkorlik tashkilotlari grantlarida ishtirok etish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish; 4. Hamkorlikda grant loyihalarini amalga oshirish bo'yicha kafedralar kesimida ishlar olib borilishini muvofiqlashtirish tizimini yaratish.	2022-yil mart 2022-yil sentabr 2022-yil may 2022-yil iyun	D.Umarov E.Abdullayev D.Umarov E.Abdullayev N.Salayev S.Latipov E.Abdullayev
36.	Xorijiy professor-o'qituvchilarini Universitet ta'lim jarayoniga jalb qilish dasturlar bo'yicha ishlarni rivojlantirish	1. Xorijiy professor-o'qituvchilarini Universitet ta'lim jarayoniga jalb qilish maqsadida tegishli dasturda (The Fulbright U.S. Scholar Program, The Fulbright Specialist Program) ishtirok etishi mumkin bo'lgan xorijlik professorlarning ro'yxatini shakllantirish; 2. Tegishli dasturlar orqali Universitet ta'lim jarayoniga jalb qilingan xorijlik professor-o'qituvchilarga universitetda tegishli sharoitlarni ta'minlab berish; 3. Tegishli dasturlar orqali universitet ta'lim jarayoniga jalb qilingan xorijlik professor-o'qituvchilarni qo'shma ta'lim dasturlari va xorijlik talabalar uchun ta'lim dasturlarida ta'lim berishlarini ta'minlash.	2022-yil iyun 2022-yil sentabr 2022-yil sentabr	D.Umarov E.Abdullayev I.Rustambekov D.Umarov A.Iminov I.Rustambekov D.Umarov E.Abdullayev

37.	Chet eldagi vatandoshlar bilan hamkorlikda masofaviy o'quv kurslari va yuridik ta'limni rivojlantirish bo'yicha individual loyihalar ishlab chiqish	1. Xorijda ta'lim, ilmiy va boshqa tashkilotlarda faoliyat olib borayotgan vatandoshlar bilan amalga oshiriladigan o'quv kurslari ro'yxatini shakllantirish;	2022-yil iyun	D.Umarov I.Rustambekov E.Abdullayev
		2. Vatandoshlar bilan o'zaro manfaatli asosda ta'lim xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha shartnomalar tuzish va individual loyihalar ishlab chiqish;	2022-yil avgust-sentabr	I.Rustambekov D.Umarov
		3. Vatandoshlar bilan birgalikda yuridik sohaga oid o'quv qo'llanmalar, darsliklar yozish hamda hamkorlikdagi ilmiy tadqiqotlar va amaliy loyihalarni amalga oshirishni tashkillashtirish va moliyalashtirish.	2022-yil mart	N.Salayev A.Iminov
38.	Huquq sohasining istiqbolli yo'nalishlari bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini yangi bosqichga ko'tarish va muvofiqlashtirish	1. Universitetda mavjud chet el huquqini o'rganish markazlari faoliyatini takomillashtirish hamda yangi markazlar tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish;	2022-yil may	D.Umarov D.Umarxanova
		2. Mazkur markazlarga hamkor yetuk xorijiy universitetlar va ilmiy markazlar professor-o'qituvchilari va olimlarni jalb qilish va qo'shma tadqiqot loyihalarini amalga oshirishni moliyalashtirish;	2022-yil sentabr	A.Iminov E.Abdullayev I.Ergashev
		3. Amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot natijalarini tizimli ravishda chop etib borish.	Doimiy	N.Salayev O.Choriyev
39.	Xorijiy fuqarolarni o'qishga jalb qilishning alohida tizimini ishlab chiqish	1. Xorijiy talabalar uchun chet (ingliz, rus va boshqa) tillarida xalqaro hamkorlar bilan birga ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha taklif kiritish;	2023-yil may-iyun	I.Rustambekov D.Umarov
		2. Xorijiy fuqarolarni O'zbekiston va universitetga qiziqishini shakllantirish uchun ichki turizm va universitetga vizual sayohat dasturlarini tashkil etish, universitet brendbuklari va videoroliklarini keng tarqatish;	2022-yil iyun-avgust	E.Abdullayev S.Latipov J.Haydarov
		3. Xorijiy talabalar uchun alohida grantlarni (scholarship) joriy qilish va moliyalashtirishning huquqiy asoslarini ishlab chiqish;	2022-yil dekabr	A.Iminov E.Abdullayev
		4. Universitetga jalb qilinadigan xorijlik professor-o'qituvchilarni mazkur ta'lim dasturlarida dars mashg'ulotlarini o'tkazishga jalb qilish.	2022-yil dekabr	D.Umarov E.Abdullayev
VII. Universitetning xalqaro reytinglarda munosib o'rin egallashini ta'minlash				
40.	QS va THE xalqaro reyting tashkilotlari bilan global reytingga kirish yuzasidan chora-tadbirlarni amalga oshirish	1. Universitetni xalqaro reytinglarga kirishini qo'llab-quvvatlash va amaliy yordam ko'rsatish bo'yicha seminar-treninglar tashkil etish;	2022-yil oktabr	N.Salayev G.Boboyeva
		2. Universitetning xalqaro reyting tashkilotlari reytingiga kirishini ta'minlash maqsadida turdosh sohalarida fakultetlar va ta'lim yo'nalishlarini ochish haqida taklif kiritish;	2023-yil may	I.Rustambekov G.Boboyeva

		3. Amalga oshirilgan chora-tadbirlar bo'yicha tegishli natijalarni xalqaro reyting tashkilotlariga taqdim etib borish.	Har chorakda	E.Abdullayev G.Boboyeva
41.	Mintaqaviy va global reytinglarga kirish yuzasidan chora-tadbirlarni amalga oshirish	1. World's Universities with Real Impact (WURI) global reytingga kirish yuzasidan chora-tadbirlarni amalga oshirish; 2. U-Multirank, Round University Ranking, Youth Incorporated global reytingga kirish yuzasidan chora-tadbirlarni amalga oshirish; 3. QS EECA, QS ESG Metrics rivojlangan Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlari reytingiga kirish yuzasidan chora-tadbirlarni amalga oshirish.	2024-yil oktabr 2025-yil may 2026-yil dekabr	N.Salayev G.Boboyeva I.Ergashev G.Boboyeva E.Abdullayev G.Boboyeva
42.	Universitetning xalqaro reyting tashkilotlari mintaqaviy va global reytingiga kirishda hisobga olinadigan yo'nalishlar bo'yicha ishlashning yangi tizimini yaratish	1. Universitetning xalqaro reytingida hisobga olinadigan akademik nufuz, ish beruvchilar nufuzi, professor-o'qituvchilar va talabalar proporsiyasi, iqtiboslar, xorijlik professorlar ulushi va xorijlik talabalar ulushi bo'yicha yangi chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish; 2. Nufuzli, shu jumladan, hamkor universitetlar va ish beruvchi tashkilotlar bilan aloqalarni har tomonlama mustahkamlab borish; 3. Amalga oshirilgan chora-tadbirlar bo'yicha tegishli natijalarni xalqaro reyting tashkilotlariga taqdim etib borish.	2022-yil aprel Doimiy Har chorakda	N.Salayev E.Abdullayev G.Boboyeva Kafedra mudirlari E.Abdullayev Kafedra mudirlari G.Boboyeva
43.	Xalqaro tashkilotlar hamda TOP-1000 talik reytingidagi universitetlar, xalqaro va mahalliy ish beruvchilar bilan ishlashni yangi bosqichga olib chiqish	1. Universitetning global reytinglarga kirishda yordam beradigan xalqaro konferensiyalarda ishtirok etish va tashkil etish bo'yicha grafik-reja ishlab chiqish; 2. Universitetning xalqaro nufuzini oshirishi mumkin bo'lgan xalqaro tanlovlarda talabalarining ishtirokini oshirish yuzasidan xalqaro olimpiadalar yoki viktorinalar to'g'risidagi ma'lumotlar tayyorlash orqali taklif va tavsiyalar berib borish; 3. Xalqaro reyting tashkilotlari tomonidan reytingni yuritishda ko'rsatkichlari hisobga olinadigan xalqaro ilmiy texnik ma'lumotlar bazalaridagi jurnallarda nashr etilgan ilmiy maqolalarning hisobi va monitoringini yuritish.	2022-yil may 2022-yil may Har chorakda	N.Salayev I.Ergashev G.Boboyeva D.Umarov E.Abdullayev Fakultet dekanlari I.Ergashev G.Boboyeva Kafedra mudirlari
VIII. Universitetning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va marketing o'rganishlarini tashkil etish				
44.	Intellectual faoliyat natijalarini tijoratlashtirishning institutsional mexanizmlarini yaratish	1. Yuridik ta'lim va yuridik xizmat bozori bo'yicha marketing o'rganishlar o'tkazish, qo'shimcha pullik xizmatlarni joriy etish bo'yicha takliflar kiritib borish; 2. Amaliyotchi o'qituvchilardan ekspertlar guruhini shakllantirish orqali milliy va xorijiy investorlar uchun huquqiy maslahatlar va xizmatlar ko'rsatishni yo'lga qo'yish;	2022-yil dekabr 2023-yil fevral	A.Iminov S.Latipov A.Iminov S.Latipov

		3. Buyurtma-loyihalari (konsepsiya, strategiya va boshqa hujjatlar loyihalari) bilan ishlash guruhlarini tashkil qilish; 4. Huquqiy ekspertiza xizmatlarini yo'lga qo'yish; 5. Universitet tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarni ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda reklama qilib borish; 6. Ilm-fan natijalarini tijoratlashtirishdan tushadigan mablag'larni taqsimlash, qisqa muddatda hisob-kitob qilish tartibini belgilash.	2023-yil fevral 2023-yil mart 2023-yil yanvar	N.Salayev S.Latipov J.Haydarov S.Latipov A.Iminov S.Latipov
45.	O'quv modullarini va mashg'ulotlarini tijoratlashtirishga qaratilgan xizmatlarni yo'lga qo'yish	1. Jamiyatdagi huquqiy treninglar bozorini o'rganish va taklifni shakllantirish, shu jumladan "Biznes huquqi" maktabini tashkil etish bo'yicha takliflar kiritish; 2. Bozor talabidan kelib chiqib, xususiy sektor va davlat organlari uchun o'quv treninglar mavzularini ishlab chiqish; 3. Xususiy sektor vakillari uchun shaxsiy rivojlanish, huquqshunoslikka kirish (foundation) kurslari va yuridik ta'lim dasturlari bo'yicha xizmatlarni yo'lga qo'yish; 4. Huquqshunoslikka qiziquvchi omma uchun O'zbekiston milliy huquq tizimi haqida boshlang'ich ma'lumot beruvchi "Tsul-0" onlayn kurs platformasini yaratish va tijoratlashtirish; 5. O'quv modullarini va mashg'ulotlarini tijoratlashtirish maqsadida boshqa ta'lim muassasalarga hamkorlik yuzasidan takliflarini ishlab chiqish.	2022-yil dekabr 2023-yil yanvar 2023-yil may 2023-yil iyun 2022-yil dekabr	A.Iminov S.Latipov A.Yakubov A.Karimov A.Karimov A.Yakubov D.Umarov S.Latipov
46.	Tahririy-nashriyot (proofreading) va tarjima xizmatlarini yo'lga qo'yish	1. Tahririy-nashriyot bo'limi tomonidan o'zbek va rus tillarida o'quv-ilmiy adabiyotlarni matnli va texnik tahrir qilish, boshqa tahririy-nashriyot xizmatlarini, shuningdek tarjima xizmatlarini to'lov asosida amalga oshirish; 2. Xorijiy tillar kafedrasini tomonidan "proofreading" xizmatini, shuningdek xorijiy tillarda yoziladigan maqolalar va xorijiy adabiyotlarni tarjima qilishda pullik xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yish; 3. Ilmiy tadqiqot ishlarini rasmiylashtirish talablari bo'yicha tekshirish va antiplagiat dasturi orqali tekshirish xizmatlarini yo'lga qo'yish.	2022-yil avgust 2022-yil sentabr 2022-yil dekabr	N.Salayev A.Iminov O.Choriyev O.Toshmatov S.Latipov I.Ergashev A.Karimov O.Choriyev
47.	Universitetning moliyaviy barqarorligi va moliyaviy mustaqilligini ta'minlash	1. Universitet jamg'armasi hisobidan startaplar va boshqa loyihaviy tashabbuslarni rag'batlantirish tartibini belgilash; 2. TDYU logotipi tushirilgan esdalik sovg'alarni tayyorlash va sotishni yo'lga qo'yish;	2022-yil dekabr 2023-yil	A.Iminov S.Latipov A.Iminov

		3. Universitetning bo'sh turgan bino va inshootlarda pullik xizmatlar ko'rsatish tartibini belgilash; 4. Universitetga byudjetdan tashqari bo'sh turgan pul mablag'larini Markaziy bank tomonidan belgilangan qayta moliyalashtirish stavkalaridan kam bo'lmagan miqdorlarda mustaqil tanlov o'tkazish yo'li bilan tijorat banklarining depozitlariga joylash bo'yicha takliflar kiritish.	yanvar 2023-yil fevral	I.Bozorov S.Latipov A.Iminov M.Parpiyev
48.	Universitet moddiy-texnik bazasini rivojlantirish	1. Universitet yangi kampusini barpo etish; 2. Universitet kampusida sayyor sud majlisi xonalari, tergov va kriminalistika laboratoriyalari, yuridik xizmat, mediasiya, hakamlik sudlari va xalqaro arbitraj markazlari, yuridik biznes akselleratorlari xonalarini tashkil etish hamda ularni moddiy-texnik jihozlash, shuningdek, yuridik klinika moddiy-texnik bazasini rivojlantirish; 3. Yuridik kadrlar buyurtmachilari bilan birgalikda amaliy mutaxassislik kafedralarini moddiy-texnik jihozlash, shu jumladan kafedralardagi protsessual jarayonlarni virtual kuzatish imkoniyatini ta'minlash; 4. Chet el o'quv va ilmiy adabiyotlar, darsliklar hamda o'quv qo'llanmalarni mualliflik huquqi bo'lgan ishlab chiqaruvchilardan to'g'ridan to'g'ri muntazam xarid qilib borish.	2025-yil may 2025-yil avgust 2023-yil oktabr 2022-yil sentabr	A.Iminov I.Rustambekov A.Iminov I.Bozorov I.Rustambekov A.Iminov I.Bozorov I.Rustambekov A.Iminov X.Pirmetova
IX. Universitet faoliyatini raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalarni qo'llash				
49.	Universitet infratuzilmasini rivojlantirish	1. Universitet kampusida talabalarga bank-moliya xizmatlari, transport chiptalari xarid qilish yoki bron qilish, ichki turizmni tashkil etish xizmatlarini yo'lga qo'yish. 2. Talaba ID kartasini (student card) ko'p tarmoqli karta tizimiga ulash orqali oson pul o'tkazish, universitet kutubxonasi, oshxonasi, avtoturargoh, imtiyozli transport kartalari (ATTO)dan foydalanish, universitetning burchak do'konlarida (corner shop) to'lovlarni amalga oshirish imkonini yaratish.	2026-yil sentabr 2023-yil sentabr	A.Iminov I.Bozorov M.Parpiyev A.Iminov M.Parpiyev S.Mamanazarov S.Latipov
50.	Axborot-resurs markazi faoliyatini takomillashtirish va avtomatlashtirish	1. Axborot-resurs markazining TDYU elektron universitet platformasiga integratsiyalasha oladigan avtomatlashtirilgan axborot kutubxona dasturini yaratish; 2. ARM qidiruv tizimini takomillashtirish – kengaytirilgan qidiruv timizini yo'lga qo'yish;	2023-yil yanvar 2023-yil mart	I.Rustambekov A.Hashimxanov A.Karimov H.Pirmetova E.Abdullayev

	3. Bibliotheca RFID Library Systems kutubxona dasturiy uskuna kompleksini xarid qilish va Axborot-resurs markazi fondidagi resurslardan RFID-texnologiyasi asosida foydalanishni tashkil etish; 4. ARM fondida mavjud nodir adabiyotlar va ilmiy ishlarning elektron bazasini shakllantirish; 5. ARMda professor-o‘qituvchilar va tadqiqotchilar uchun alohida tadqiqot xonalarini tashkil etish; 6. Xorijiy mamlakatlar oliy ta’lim muassasalari kutubxonalari bilan hamkorlikda tajriba almashishni tashkil etish.	2023-yil iyun 2022-yil dekabr 2023-yil may 2023-yil iyun	
--	--	--	--